

MODALLIK KATEGORIYASI IFODALANISHINING AYRIM LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATIGA OID (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Ro'ziyev Yarash Bozorovich

Filologiya fanlar doktori (DSc), dotsent

Buxoro davlat universiteti Nemis va fransuz filologiyasi kafedrasini mudiri

E-mail: yarashruziev@gmail.com, +99891-311-44-69

Fayzulloyeva Niginabonu Murodillo qizi

Lingvistika (nemis tili) yo'nalishi 1-bosqich magistranti, Buxoro davlat universiteti

E-mail; niginabonufayzulloyeva@gmail.com +99894-576-52-57

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19676914>

Annotatsiya: Ushbu maqola modallik kategoriyasining lingvistik va semantik xususiyatlarini o'rganadi. Modallikning morfologik, leksik va sintaktik ifodalari tahlil qilinadi, shuningdek, uning mustaqil so'z turkumi sifatida o'rni ko'rsatiladi. Nemis tilidagi **sollen** modal fe'lining ma'nolari, qo'llanilishi va korpus tahlili natijalari keltiriladi. Korpus tadqiqotlari yordamida modal fe'llarning real nutq kontekstidagi ishlatilishi miqdori aniqlanadi.

Kalit so'z: modallik, modal fe'l, obyektiv modallik, subyektiv modallik, korpus tahlili

Abstract: This article investigates the linguistic and semantic features of the modality category. The morphological, lexical, and syntactic expressions of modality are analyzed, as well as its role as an independent part of speech. The meanings, usage, and corpus-based analysis of the German modal verb *sollen* are presented. Corpus studies allow the examination of the frequency and contextual use of modal verbs in real speech.

Keywords: modality, modal verb, objective modality, subjective modality, corpus analyses.

Tilshunoslikda modallik deyilganda ko'pincha gap mazmunining real borliqqa munosabati hamda so'zlovchining shu mazmunga nisbatan qarashi anglashiladi. Modallik kategoriyasiga gap modalligini ifodalashga xizmat etadigan turli-tuman vositalar kiritiladi. Bu esa hatto modallikni mustaqil til kategoriyasi sifatida mavjudligini ham shubha ostiga qo'ygan. Turkiy tillar materiallariga tayangan holda odatda quyidagi modallik vositalari ko'rsatiladi: mayl, zamon va shaxs son qo'shimchalarining ayrim tuzilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, ohang, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar. Ko'rinib turadiki, bu kategoriya doirasida turli-tuman vositalar: morfologik (mayl, zamon, shaxs affikslari), leksik (so'zlarning boshqa guruhlari), sintaktik (ayrim gap tuzilmalari so'z tartibi, takror hamda fonetik vositalar ya'ni ohanglar) birlashtiriladi. Bir kategoriya doirasiga bunday turli xil vositalarning jamlanishi tilshunoslar orasida, tabiiy ravishda, ayrim e'tirozlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu sababli ham bu vositalarni birlashtiruvchi belgi aniqlashga urinishlar qilindi. Modal so'zlar alohida so'z turkumidir, kirish so'zlari o'rnida esa boshqa so'z turkumlari hamda so'z birikmalari, ergash gaplar, infinitivli konstruksiyalar va boshqalar namoyon bo'lishi mumkin. Modal so'zlar so'z turkumi sifatida har doim, hamma hollarda gapning kirish so'zlari sifatida qo'llanadigan gap bo'laklarini o'z ichiga oladi. Bunday so'zlar o'zining o'zgarishligi va boshqa so'zlar bilan birikuvchanligi cheklanganligi bilan ajralib turadi. Modal so'zlar mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalanadigan predmetlar, belgilar yoki jarayonlarni nomlamaydilar; ular gapni tashkil etuvchi so'zlar bilan grammatik bog'lanishdan mahrum bo'lib, gap bo'laklari bo'la olmaydilar.

Nemis tilining katta izohli lug'ati *Das Große Wörterbuch der deutschen Sprache* modallikni "turli xil lingvistik shakllar orqali ifodalanadigan, so'zlovchining ish-harakatga bo'lgan munosabati, shuningdek ish-harakatning real voqelikka yoxud uning amalga oshishiga nisbati"

sifatida ta'riflaydi. Umuman olganda, modallik "so'zlovchining ish-harakat bajarilishiga bo'lgan munosabatini", shuningdek, "so'zlovchining taxmin va qarashlarini aks ettiradi; bu esa kommunikatsiya ishtirokchilarining umumiy deb qabul qilingan bilimlari, ularning kutishlari, hissiyotlari hamda o'zaro ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liqdir". Nemis tilining asosiy grammatik asarlarida, xususan, Jung (1976) hamda Helbig/Buscha (2001) ishlarida modal fe'llar yordamchi fe'llar turkumiga kiritiladi. "Yordamchi fe'llar sifatida boshqa fe'l bilan qo'llanilganda, ular ushbu fe'lga o'ziga xos ma'no yuklaydi. Bunda har bir modal fe'l faqat bitta ma'noni emas, balki modalitetning turli xil variantlarini ifodalaydi" [1; 63]. O'zbek tilshunosligida modallik kategoriyasi tilshunoslikda murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida qaraladi. Nemis tilshunosligida modallik gapning grammatik shakllanishi va undagi fikrning haqiqatga munosabatini ifodalash sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, gap predikativligi va modalligi bir-biriga bog'liq bo'lib, predikativlik gapning obyektiv voqelikka munosabatini bildiradi. O'zbek tilshunosligida germanist olimlar S.Saidov va G'. Zikrillayev ushbu yondashuvni rivojlantirgan. Ularning fikricha, modallik ikki asosiy turga bo'linadi:

1. **Obyektiv modallik** – gapda voqelikda mavjud bo'lgan hodisa yoki faktlar haqida fikr bildiriladi.
2. **Subyektiv modallik** – so'zlovchining gapirayotgan fikrga munosabatini bildiradi; bu har bir jumlada mavjud bo'lishi shart emas

S. Saidov va G'. Zikrillayevning ta'kidlashicha, bu yondashuv o'sha davrda rus tilshunosligi ta'sirida shakllangan: gapning voqelikka munosabati obyektiv modallik, so'zlovchining muloqotga bo'lgan munosabati esa subyektiv modallikni ifodalaydi. Shu tariqa, ularning o'zbekcha ta'riflari nemis tilshunosligidagi predikativlik va modallik tushunchalari bilan uyg'unlashadi [4; 130].

O'zbek tilshunosligida modallik haqida bir qator tilshunoslar tadqiqot olib borgan R. Komiljonov esa o'z tadqiqotida o'zbek tilidagi modal so'zlarning shakllanishi, rivojlanishi, semantik turlari va gap tarkibidagi roli bilan bir qatorda, obyektiv va subyektiv modallikning ifodalanish vositalarini ham chuqur tahlil qiladi. U S.Saidov va G'.Zikrillayevning ta'riflarini o'z ishida qo'llab, modal so'zlarning semantik va sintaktik imkoniyatlarini batafsil yoritadi. Shu bilan birga, R. Komiljonov modallik kategoriyasini umumiy tilshunoslik doirasida, jumladan rus tilshunosligi va turkologiya yutuqlari bilan bog'lab tahlil qiladi, bu esa o'zbek tilshunosligi uchun ilmiy yangilik va muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, nemis va o'zbek tilshunosligidagi modallik ta'riflari birlashtirilganda, u nafaqat gapning grammatik shakllanishi, balki fikrning haqiqatga munosabati, so'zlovchining bahosi va kommunikativ maqsadini ifodalovchi ko'p qirrali kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, obyektiv va subyektiv modallikning tahlili, ularning ifodalanish vositalari va modal so'zlarning roli tilshunoslikda dolzarb va muhim masala bo'lib qolmoqda. J.Yoqubov esa o'z tadqiqotida mantiq bilan lingvistikani o'zaro bog'lab, modallik kategoriyasining semantik xususiyatlarini ochib bergan. Mazkur tadqiqotda modallik kategoriyasi bir tomondan mantiq ilmi bilan bog'lab tahlil qilinsa, ikkinchi tomondan, mazkur semantik kategoriya tilshunoslikda qanday lisoniy birliklar bilan ifodalanish yo'llari yoritilgan. Unda sodda va qo'shma gaplarda "istak", "mumkinlik", "zaruriyat" semantik kategoriyalari fransuz va o'zbek tillarida qanday lisoniy birliklar bilan qo'llanishi tekshirilgan bo'lib, u onomasiologik yondashuv, ya'ni tilshunoslikdagi "ma'nodan shaklga" tamoyili asosida olib borilgan. J.Yoqubov modallik mantig'iga quyidagicha ta'rif bergan: "Modallik mantig'i deb mantiqiy jarayonda tezroq, aniq va ravshan bayon qilishda gaplar oraliqida qator ramziy belgilar, harflar, formulalar, raqamlar, mantiqiy bog'lovchilar, modal (intensional) operatorlarning ketma-ket joylashishida

propozitsional bog'lovchilar qo'llanib, ular predmetlar va gaplar orasidagi har xil munosabatlarni anglatib, chin, real, tasdiq, tasodif, xato, inkor, mumkin, zarur, ehtimol, mumkin emas, shart kabi modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan shartli til belgilariga aytiladi [3; 35].

Ushbu maqolada nemis tilidagi *sollen* modal fe'lining ma'no va qo'llanish xususiyatlari *Duden-Deutsches Universalwörterbuch* asosida korpus tahlil qilib chiqildi [2].

Avvalo suni ta'kidlash kerakki, hozirgi nemis tilida oltita sof modal fe'l (können, sollen, müssen, wollen, dürfen, mögen) mavjud bo'lib, sollen o'zining ko'p ma'noligi bilan ajralib turadi. Uning lug'aviy ma'nosi zaruriyat, shart va majburiyatni anglatganda, ko'p holda o'zlashtirmalik ma'nosida ham qo'llanadi. Ya'ni so'zlovchining taxmini, gumoni, ishonchi kabi ma'nolari bilan birga bevosita kuzatilmagan, eshitilgan voqea-hodisani isodalash uchun qo'llanadi. Fikrimizni asoslash maqsadida *sollen* modal fe'lining mashhur Duden lug'atidagi izohini tahlilga tortamiz:

Sollen modal felining quyidagi ma'nolari Duden lug'atida keltirilgan.

Verb • soll, sollte, hat gesollt/sollen

(Infinitiv bilan birga kelganda; agar "sollen" dan keyin infinitiv kelmasa, kerakli infinitiv mazmun va vaziyatdan tushuniladi)

Ma'nolar ko'rinishi (Bedeutungsübersicht)

1. a) O'zga shaxsning xohish-irodasi ish-harakatning amalga oshishiga qaratilganini bildiradi.
*Sag ihr, sie **soll** sofort zu mir kommen.*
b) Taqdirga ishonadigan va taqdirga iroda yuklaydigan odamlar tomonidan ishlatiladi.
*Als ob jede Stunde dieses Tages Erinnerungen in ihr wecken **sollte**.*
c) Ma'nosi cheklangan; va'da yoki tahdidda kelishi mumkin: so'zlovchi ish-harakatni aniq amalga oshirishini bildiradi.
*Nun gut, du **sollst** deinen Willen haben.*
2. a) So'zlovchi ish-harakatning amalga oshishini zarur, to'g'ri, foydali deb hisoblab, taklif yoki tavsiya bildiradi.
*In Zukunft **solltest** du vorsichtiger sein.*
b) So'zlovchi ish-harakatning to'g'ri yoki foydali amalga oshirish haqida ikkilanayotganini bildiradi.
*Wem **soll** ich nun glauben?*
3. a) So'zlovchi ish-harakatning boshqa bir shaxsning fikri, bayonoti yoki da'vosi sifatida keltiradi.
*Sie **soll** sehr schön gewesen sein.*
b) Ish-harakat bajarilishi na grammatik ega, na so'zlovchi ham bo'lmagan boshqa bir shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita taxmin qilinishi yoki kutilishini bildiriladi.
*Warum **soll** er es getan haben?*
4. a) Shart ergash gapning ehtimollik (gipotetik) xususiyatini ta'kidlaydi; ish-harakat bajarilishi ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi.
*Wenn euch das gelingen **sollte**, würden wir uns freuen.*
b) So'zlovchi ish-harakatning mazmuni (uning dastlabki fikriga zid ravishda endi majburan taxmin qilinayotgan) sodir bo'lganmi, bo'ladimi yoki bo'lganmi — bunga ishonchsiz ekanini bildiradi.
***Sollte** ich das wirklich übersehen haben?*
5. O'tmishda kelajakni bildiradi; qo'llanishi cheklangan.
*Das **sollte** sich als Trugschluss erweisen.*
*Sehr bald **sollte** es sich zeigen, dass ...*

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, modallik kategoriyasi tilshunoslikda hozirgacha to'liq tadqiq etilgan emas, ayniqsa o'zbek tilshunosligida u turli vosita, jumladan lug'aviy, morfologik, sintaktik, semantik, fonetik (modal so'z, kirish so'z, yuklama, qo'shimcha, ohang va b.) orqali ifodalansa, nemis tilida asosan lug'aviy, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. O'zbek tilidan farqli ravishda nemis tilida modal so'zlardan tashqari bir guruh modal fe'llar borki, ular bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sollen modal fe'li esa ular ichida eng sermahsul va ko'p ma'noli modal fe'l hisoblanadi. Uni keng tadqiq va tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning nazariy va amaliy rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bublitz, W. Semantische Untersuchungen zur Modalität im Deutschen. Tübingen, 1978.
2. Dudenredaktion. Duden Deutsches Universalwörterbuch. 9. Auflage. Berlin: Dudenverlag, 2019.
3. Yoqubov, J. A. Modallik kategoriyasining semantik va lingvistik xususiyatlari. Fil. fan. nomz. dis. avtoref.- Toshkent, 2005
4. S. Saidov, G'. Zikrullayev. Nemis tili grammatikasi. "O'qituvchi". Toshkent, 1973